

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 496 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJİY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA‘MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUVIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY JIHAHLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohrux Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGS1 ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUV	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otaylor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Xoshimov Sobir Murtazayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
Iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: sobirhosimov7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari asosida iqtisodiyotda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi. Tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning miqdori oxirgi yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, YAIMdagi ulushida kamayish kuzatilganligi aniqlandi. Shuningdek, investitsiyalarning YAIMdagi ulushining kamayishi salbiy xarakterga ega emasligi, balki iqtisodiyotning yetukligi va sifat jihatdan o'sishi deb baholash mumkinligi e'tirof etildi. Shuning bilan birga, tadqiqot yakunida tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, asosiy kapital, biznes muhiti, fiskal siyosat, eksport, import, tashqi savdo balansi, iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, demografik dividend.

Abstract. The article attempts to reveal the features of financing fixed capital investments in the economy based on the experience of developing countries. The study found that although the amount of fixed capital investments in developing countries has had an increasing trend in recent years, their share in GDP has decreased. It was also recognized that the decrease in the share of investments in GDP is not negative, but can be considered as a sign of the maturity and qualitative growth of the economy. At the same time, the study concludes with relevant conclusions and recommendations.

Keywords: investment, fixed capital, business environment, fiscal policy, exports, imports, foreign trade balance, economic growth, labor productivity, demographic dividend.

Аннотация. В статье предпринята попытка выявить особенности финансирования капитальных вложений в экономике на основе опыта развивающихся стран. Исследование показало, что, несмотря на тенденцию к росту объема капитальных вложений в развивающихся странах в последние годы, их доля в ВВП снизилась. Также было установлено, что снижение доли инвестиций в ВВП не является отрицательным, а может рассматриваться как признак зрелости и качественного роста экономики. Одновременно исследование содержит соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: инвестиции, капитальные вложения, деловая среда, фискальная политика, экспорт, импорт, внешнеторговый баланс, экономический рост, производительность труда, демографический дивиденд.

KIRISH

Asosiy kapitalga investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim bo'lgan uzoq muddatli iqtisodiy resurslardan biri hisoblanadi. Mamlakatning investitsiya muhiti va moliyalashtirish mexanizmlari iqtisodiy o'sish va jadal rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish moliyaviy resurslarni boshqarish, ichki va tashqi moliyalashtirish manbalarini samarali integratsiyalashtirish, shu bilan birga xorijiy kapitalni jalb qilish vositalarini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda biznes muhiti, instituttsional tuzilmalar, bank tizimi va xalqaro moliya institutlari rolining ta'siri katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Dunyo mamlakatlari o'z iqtisodiyotlariga keng ko'lamda amalga oshirgan investitsiyalari iqtisodiy o'sishning muhim qismi bo'lib qolmoqda. Ammo, uning dinamikasi mintaqalar va sektorlar bo'yicha turlicha bo'lib, global dunyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar fonida ayrim davlatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar

miqdori yuqori bo'lib, ayrim davlatlarda kamayib bormoqda. "Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda dunyo bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori 25,7 trln. AQSH dollarini tashkil etgan" [1]. Jahon miqyosida taranglashgan ziddiyatlar, o'zaro savdo urushlari, iqtisodiy noaniqliklar va investitsiyaviy zaiflashuvlar ushbu tendensiyalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu o'rinda jahondagi va mintaqalardagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. "Rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda sezilarli darajada o'sishiga va G'arbiy va Janubiy Osiyoda, shuningdek, Markaziy Amerika va Karib dengizida o'tacha o'sishga qaramay, 867 milliard dollarni tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi Sharqiy Osiyoda (asosan Xitoyga) 12 foizga va Janubiy Amerikada 18 foizga kamaydi" [2].

Bunday tendensiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy kapitalga sarmoyalar jalb qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini yana bir bor taqozo etadi. Bu mamlakatlar uchun tashqi moliyaviy resurslardan foydalanish, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish kabi strategik yo'nalishlarni tashkil etishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiy adabiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish masalasi iqtisodiy o'sish va institutsional rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Amerikalik iqtisodchi D.A.Aschauer tadqiqotlarida: "davlat tomonidan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar xususiy sektor faolligini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, transport, energetika va kommunikatsiya sohalariga yo'naltirilgan asosiy kapital sarmoyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi"[3]. Biroq ushbu yondashuv keyinchalik davlat xarajatlarining samaradorligi institutlar sifatiga bog'liq ekanini inobatga olmagan uchun tanqid qilingan.

W.Easterly va S.Rebelo D.A.Aschauer qarashlarini qisman rad etib: "davlat investitsiyalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri har doim ham ijobiy bo'lmagligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, investitsiyalarni moliyalashtirish samarasi mamlakatdagi fiskal siyosat, institutlar va bozor mexanizmlari rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ta'sir zaif bo'lishi mumkin" [4].

Shu bilan birga, W.Otieno va J.Aduda "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga avtomatik ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini inkor etadi. Ularning fikricha, mahalliy moliya bozorlari rivojlanmagan va texnologik singdirish qobiliyati past bo'lgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar asosiy kapitalni emas, balki qisqa muddatli moliyaviy foydani ko'zlashi mumkin"[5]. Bu yondashuv to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sifati masalasini ilmiy muhokama markaziga olib chiqadi.

Amerikalik olim J.E.Stiglitz esa global investitsiya oqimlariga tanqidiy yondashib: "rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda tashqi manbalarga ortiqcha tayanish iqtisodiy mustaqillikni susaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, investitsiya siyosati faqat kapital jalb qilishga emas, balki uni milliy iqtisodiy manfaatlar asosida boshqarishga qaratilgan bo'lishi lozim" [6].

MDH olimlaridan S.Guriev tadqiqotlarida: "davlat institutlari va investitsiya muhiti MDH mamlakatlarida asosiy kapital sarmoyalari samaradorligiga ta'sir qilishi aniqlangan"[7]. Ukrainalik olim A. Shevchenko: "Ukraina va boshqa MDH mamlakatlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari infratuzilma loyihalari uchun muhim sarmoya manbai hisoblanishini ta'kidlaydi" [8]. MDH olimlari tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, institutlar sifati, davlat-xususiy sheriklik va xorijiy sarmoyalar samaradorligi MDH mamlakatlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning natijasiga ta'sir qiladi. Bu jahon olimlari fikrlari bilan uyg'un, lekin milliy xususiyatlar va empirik ma'lumotlar qo'shimcha kontekst beradi.

Shu tariqa, jahon olimlari investitsiyalarni moliyalashtirish masalasiga asosan institutsional va makroiqtisodiy yondashuv orqali yondashgan bo'lsa, MDH olimlari milliy amaliyot va tarkibiy muammolarga ko'proq e'tibor qaratgan. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kompleks va qiyosiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish borasida rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari rivojlangan mamlakatlarnikidan farq qilgan holda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Moliyalashtirish xususiyatlariga ko'ra, asosan davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari, xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli grantlari va kreditlari orqali amalga oshiriladi. Kapital bozorining chuqur rivojlanmaganligi



uzoq muddatli mablag'lar tanqisligini yuzaga keltiradi, bundan tashqari suveren mamlakat riskining yuqoriligi va tashqi qarzlarga bog'liqlik darajasi ham yuqori. Institusional nazoratda ham muammolar mavjud, ya'ni investitsiya loyihalarining ishlab chiqilishi, moliyaviy va iqtisodiy jihatdan samaradorligi hamda ularning monitoring masalalarini aytish mumkin. Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda axborot va ma'lumotlarning hamda tender savdolarining o'tkazilish tizimining yetarlisha shaffof emasligi, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining samarasizligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida qonunshilikdagi kamchiliklar, risklarni katta qismini davlat o'z zimmasiga olishi, strategik loyihalarda xususiy sektorni ishtirokining biroz cheklanganligi holatlari ham rivojlanayotgan mamlakatlar ushuni xos xususiyatlar hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarning ko'proq tabiiy resurslarni o'zlashtirish va arzon ishshi kushi mavjud tarmoqlarga yo'naltirilishi, investitsiyalar samaradorligi bo'yicha ijtimoiy va siyosiy maqsadlarning ustivorligi va investitsiyalarning iqtisodiy to'liq baholanmasligi kabi holatlar ham uchraydi. Shu o'rinda moliya-kredit tizimida ham o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ayniqsa, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida tijorat banklari kredit foiz stavkalarining yuqoriligi natijasida pul resurslarining qimmatligi, byudjet mablag'larining to'g'ri ishlatilmasligi sababli katta miqdordagi byudjet defitsitining mavjudligi o'z navbatida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishni qiyinlashtiradi. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlarida ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori dinamikasi (mlrd.AQSH dollari) [9]

Mamlakatlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jahon	22150	22740	22030	23580	24650	25090	25700
YalMda ulushi %	25,4	25,7	25,6	24,0	24,1	23,5	23,1
Xitoy	5849,2	6090,9	6346,9	6598,6	6786,9	7020,0	7240,8
YalMda ulushi %	41,3	41,8	42,3	36,2	37,0	38,4	38,6
Hindiston	861,4	839,1	777,0	941,1	1012,6	1119,2	1193,9
YalMda ulushi %	31,9	29,6	29,0	29,7	30,3	30,8	30,5
Braziliya	286,6	290,5	278,5	339,2	355,2	326,4	364,0
YalMda ulushi %	14,9	15,5	18,9	20,3	18,2	14,9	16,6
Indoneziya	353,1	361,4	336,5	350,2	364,3	383,3	411,9
YalMda ulushi %	33,9	32,3	31,8	29,5	27,6	27,9	29,5
Meksika	288,9	276,6	225,9	251,5	270,0	312,4	322,7
YalMda ulushi %	22,9	19,7	20,1	19,1	18,4	17,4	17,4

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori 2018–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, YAIMdagi ulushida kamayish kuzatiladi. Birinchi sabab, ushbu mamlakatlarda YAIMning o'sishi ko'rsatkichi asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Masalan, Xitoyda 2024-yilda YAIM 18743,8 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan 32,5 foizga o'sgan. Ayni shu davrda, investitsiyalarning o'sishi 23,8 foizga teng bo'lgan. Bu holat ayniqsa, Xitoy va Hindistonda xizmatlar sohasining o'sishi, raqamli iqtisod, axborot texnologiyalari va ichki iste'mol kengayishi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, kapital sig'imli o'sishdan samaradorlikka asoslangan o'sishga o'tish yuz bergan. Ya'ni, oldin zavodlar, fabrikalar va infratuzilmaga katta investitsiyalar yo'naltirilgan bo'lsa, yuqori qo'shimsha qiymat yaratadigan raqamli texnologiyalar, innovatsion xizmatlar va inson kapitali ustuvor bo'lgan. Ushinchidan, davlat infratuzilma investitsiyalari kamayib, xususiy investitsiyalar salmog'i oshgan va iqtisodiy faollikni saqlab qolgan. Lekin, YAIMda investitsiyalar ulushi kamaygan. To'rtinchidan, texnologik rivojlanish natijasida kapital samaradorligi oshgan, kamroq investitsiyalar bilan ko'proq mahsulot va xizmatlar yaratilgan. Har bir dollar investitsiya birligi ko'proq YAIM yaratgan. Mamlakatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, Xitoyda asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 7240,8 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan 23,8 foizga o'sgan. Iqtisodiy o'sishga investitsiyalardan ko'ra ko'proq xizmatlar sohasi ulush qo'shgan. Hindistonda ham axborot texnologiyalari va xizmatlar sohasi jadal o'sishi yuz bergan. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 1193,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 38,6 foizga o'sgan. Indoneziyada ishki iste'mol va resurs eksporti hisobiga YAIM ko'proq o'sgan bo'lib, asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 411,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 16,6 foizga o'sgan. Umumiy xulosa shundan iboratki, tahlil olib borilayotgan ushbu davlatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori oshgan bo'lsada, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi kamayishi salbiy xarakterga ega emas, balki iqtisodiyotning yetukligi va sifat jihatdan o'sishi deb baholash mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlardan Xitoy Xalq Respublikasi misolida ushbu jarayonlar qanday amalga oshirilganligini ko'rib chiqamiz.

Xitoy dunyodagi eng ko'p aholiga ega davlat sifatida jahon iqtisodiyotidagi jarayonlarga muqarrar ravishda ta'sir qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda Xitoyning dunyoda o'sib borayotgan iqtisodiy va siyosiy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan maqolalar tobora ko'payib bormoqda. Xitoyning jadal iqtisodiy o'sishi, birinchi navbatda, katta hajmdagi kapital qo'yilmalar (katta ichki jamg'armalar va xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan), shuningdek, mehnat unumdorligining yuqori o'sish sur'atlari hisobiga turtki bo'ldi. Bu tendensiya Xitoyning yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi va tovarlar eksporti kabi bir qator muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yisha yetakshi bo'lishiga va yildan-yilga o'z mavqeini mustahkamlashiga yordam berdi.

"Xitoyning sanoat rivojlanishi tendentsiyalarini tahlil qilish, Jo Stadvyellning fikricha davlat sektori va davlat tomonidan tartibga solishning muhimligini ko'rsatadi. Maykl Spens dunyoda iqtisodiy kuchlar balansidagi so'nggi o'zgarishlarni, boshqa narsalar qatori, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi bilan, balki rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatdagi xatolar bilan izohlash mumkin, deb hisoblaydi" [10].

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilib, P.Koxno va Yu.Yeninning ta'kidlashicha, Xitoy hozirda investitsiyalar va innovatsiyalar sohasida rekord darajadagi faollikni namoyish etmoqda va o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida iqtisodiy o'sish bo'yicha yetakchi bo'lib kelmoqda. Xitoy iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib, davlat boshqaruvi esa sotsialistik davlat modeliga asoslangan. Davlat investitsiya siyosatini yuritishda rejalashtirish ustun tursa, bozor munosabatlari o'zini-o'zi boshqaradi. Bu siyosat turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini jamiyat farovonligini oshirish maqsadi bilan birlashtiradi (2-jadval).

2-jadval. Xitoy iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari [11]

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YalM (mlrd. dollar)	14147,8	14560,2	14996,4	18201,7	18316,8	18270,4	18743,8
Yalpi investitsiyalarning YalMdagi ulushi (%)	41,3	41,8	42,3	36,2	37,0	38,4	38,6
Eksport (mlrd.dollar)	2499,4	2498,3	2589,95	3316,02	3544,43	3379,04	3577,22
Import (mlrd. dollar)	2132,85	2068,5	2065,96	2679,41	2706,51	2556,93	2585,97
Depozit foiz stavkasi,%	1,50	1,50	1,50	1,50	1,50	1,50	1,50
Kredit foiz stavkasi, %	4,35	4,35	4,35	4,35	4,35	4,35	4,35
Oltin valyuta zahirasi (mlrd. dollar)	3072,7	3107,9	3356,5	3426,9	3306,5	3449,7	3455,6

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Xitoy yalpi ichki mahsuloti so'nggi yetti yilda 4596,0 mlrd. AQSH dollariga oshgan. O'z navbatida eksport va import ko'rsatkichlarida ham o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Tashqi savdo balansi musbat bo'lib, 2024-yilda 991,25 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ushbu yillar mobaynida o'rtasha 39,4 foizni tashkil qilib, 2023–2024-yillarda Xitoy iqtisodiyoti tomonidan jalb qilingan investitsiyalar hajmi kamayishiga global makroiqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar, Xitoy ichki iqtisodiy restrukturizatsiya jarayonlari va ishlab chiqarish sektoridagi o'sish sur'atlarining sekinlashishi sabab bo'ldi. Natijada, mamlakatning yalpi investitsiyalar hajmi ham kamaydi. Ammo, shunga qaramasdan Xitoy iqtisodiyotiga jalb qilingan yalpi investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ijobiy deb baholashga asoslar bor. Bu yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega ekanligi, tashqi savdo balansining musbat ko'rsatkichga egaligi, oltin valyuta zahiralarining ham o'sganligida ko'rish mumkin. Bundan tashqari eksport va import ko'rsatkichlarining tahlilidan ko'rinadiki, 2024-yilda eksport 2018-yilga nisbatan 43 foizga o'sgan, shu yillarda import esa 21 foizga o'sgan. Eksport ko'rsatkichlarining o'sishi investitsiyalardan samarali foydalanilganligini ko'rsatadi.

Jahon investitsiya bozorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda xususiy xorijiy sarmoyalar vazifasini bajaradi. Ular ichki investitsiya resurslari cheklangan sharoitda va mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim bo'lgan strategik loyihalarni moliyalashtirishda jalb qilinadi. Albatta, buning uchun mamlakatda demokratik qadriyatlar ustun bo'lgan, investitsiya faoliyatida milliy qonunchilik tizimi yaxshi ishlaydigan, xorijiy sarmoyadorlar uchun samarali imtiyozlar tizimi mavjud bo'lgan investitsiya muhiti darkor (3-jadval).



3-jadval. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd. AQSH dollari) [12]

Mamlakatlar	Yillar						
	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y	2023y	2024y
Xitoy	138,3	141,2	149,3	180,9	189,1	163,2	116,2
YalMda ulushi %	0,99	0,98	1,02	1,06	1,06	0,90	0,62
Hindiston	42,2	50,6	64,1	44,8	49,4	28,1	27,6
YalMda ulushi %	1,56	1,78	2,39	1,41	1,47	0,79	0,70
Braziliya	59,8	65,4	18,6	50,6	73,3	64,0	59,2
YalMda ulushi %	3,12	3,49	1,26	3,03	3,75	2,94	2,72
Indoneziya	20,1	23,9	28,3	21,1	25,4	21,5	24,2
YalMda ulushi %	1,93	2,13	2,67	1,78	1,92	1,57	1,73

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023 va 2024-yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori oldingi yillarga nisbatan kamayganligini ko'rish mumkin. Bu holat jahon investitsiya bozorida pasayish bilan izohlanadi. Xitoy iqtisodiyotida 2018 va 2022-yillar oralig'ida, hatto pandemiya davrida ham (2020-yilda 2019-yilga nisbatan 8,1 milliard AQSH dollariga ko'p) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi kuzatildi. Boshqa tomondan, Hindistonda pandemiya davrida bunday investitsiyalar hajmining pasayishi kuzatildi (2020-yilda 2019-yilga nisbatan -13,5 mlrd.AQSH dollariga kamaygan). 2024-yilda 2018-yilga nisbatan ham -14,6 mlrd.AQSH dollariga kamaygan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi yetti yilda Xitoyda o'rtasha 0,95 foizni, Hindistonda esa 1,44 foizni tashkil qilib, mos ravishda Xitoyda 0,37 foizga Hindistonda esa 0,86 foizga kamaygan. Braziliya davlatida ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimi 2020-yilda pandemiya ta'sirida 2019-yilga nisbatan keskin kamaygan (-46,8 mlrd. AQSH dollariga). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 0,4 foizga kamaygan. Indoneziya davlatida esa pandemiya sharoitida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 5,6 mlrd.AQSH dollariga oshgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 0,2 foizga kamaygan.

Yana bir rivojlanayotgan yirik iqtisodiyotlardan biri bo'lgan Hindiston iqtisodiyoti va investitsiya siyosatini tahlil qilib ko'ramiz. Hindiston dunyodagi eng yirik rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biri bo'lib, aholi soni bo'yicha Xitoy bilan birga yetakchilik qiladi. U jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi va bir necha o'n yillar davomida iqtisodiy o'sish sur'atlariga, odatda, global o'rtacha ko'rsatkichdan oshib ketdi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida Hindiston jahon iqtisodiyotiga yaqinroq integratsiyalashuv va kuchli eksport yo'nalishiga e'tibor qarata boshladi. 2010-yillarga kelib Hindiston jahon yalpi ichki mahsuloti va eksportdagi ulushini oshirishda sezilarli natijalarga erishdi, iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy markaziga aylandi. Biroq, global iqtisodiy inqiroz sharoitida Hindistonning eksport dinamikasi va iqtisodiy o'sishi 2022-yilda sekinlashdi va 2027-yilgacha tezlashishi kutilmasligi bashorat qilinmoqda (4-jadval).

4-jadval. Hindiston iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari [13]

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y	2023y	2024y
Kapital investitsiyalar (mlrd.dollar)	861,4	839,1	777,0	941,1	1012,6	1119,2	1193,9
YalMda ulushi %	31,9	29,6	29,0	29,7	30,3	30,8	30,5
Import (mlrd.dollar)	640,30	602,32	510,24	760,9	897,55	858,84	915,19
Eksport (mlrd.dollar)	538,64	529,25	499,73	677,77	778,45	779,45	824,9
Tashqi savdo balansi (mlrd.dollar)	-101,66	-73,07	-10,81	-83,13	-119,1	-79,39	-90,29
Inflyatsiya %	3,41	4,77	6,17	5,51	6,65	5,36	4,67

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Hindiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 332,5 mlrd.AQSH dollariga oshgan bo'lsada, ushbu ko'rsatkichning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oxirgi yetti yilda o'rtasha 30,2 foizni tashkil qiladi. Hindiston tashqi savdo balansi manfiy bo'lib, import savdo ulushi eksportga nisbatan ustunlik qilmoqda. Asosan, import tarkibida energiya resurslaridan neft va siqilgan gazni misol keltirish mumkin. 2024-yilda asosiy savdo hamkorlari Rossiya va Xitoy davlatlari hisoblanadi. Eksport savdolari 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 286,26 mlrd.AQSH dollariga oshib (53 foiz), neft mahsulotlari, elektronika, dori-darmonlar, to'qimashilik mahsulotlari va boshqa yuvelir mahsulotlarini tashkil

qiladi. Inflyatsiya ko'rsatkichlari 2024-yilda 4,67 foizni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan 1,26 foizga oshgan. Bu mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoatidagi past ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

Hozirgi davrda Hindiston eng yirik rivojlanayotgan bozorlardan biri sifatida misli ko'rilmagan iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan keshirmoqda. YAIM o'sish sur'atlari yiliga 6-8% dan oshib borayotgani va 2030-yilga kelib uchinchi yirik global iqtisodiyotga aylanishi prognozlari bilan mamlakat nafaqat miqdoriy o'sishni, balki chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ham namoyish etmoqda. Bu jarayon noyob demografik dividend (aholining 65% dan ortig'i 35 yoshgacha, bu holat ishchi kuchi va mustahkam ichki bozor salohiyatini belgilaydi)ni beradi. Infratuzilma uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. 2024-2025-yillarda qurilish infratuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2,25 milliard AQSH dollarini (umumiy hajmning 4,5%) tashkil etdi va Milliy infratuzilma loyihasiga umumiy investitsiyalar 2,3 trillion AQSH dollariga yetdi. Asosiy yo'nalishlar transport infrastrukturasi va shaharlarni rivojlantirish hisoblanadi. Bundan tashqari, yashil energetika va farmasevtika sanoatiga ham investitsiyalar jalb etilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda Xitoy, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari asosida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi. Ushbu rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori 2018-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, YAIMdagi ulushida kamayish kuzatiladi. Umumiy xulosa shundan iboratki, tahlil olib borilayotgan ushbu davlatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori oshgan bo'lsada, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi kamayishi salbiy xarakterga ega emas, balki iqtisodiyotning yetukligi va sifat jihatdan o'sishi deb baholash mumkin. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishni takomillashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin: sarmoyalarni jalb qilish tamoyilida hududiy yondashuvdan ko'proq tarmoqqa yo'naltirilgan yondashuvga o'tish lozim; davlat tomonidan yuqori texnologiyali va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish zarur; ushbu investitsiya siyosati ustuvor tarmoqlarda - elektronika, energetika, yengil sanoat, oziq-ovqat, transport, aloqa va boshqa sohalarda - eng samarali texnologiya va ilmiy tadqiqotlarni talab qiladigan loyihalarga yo'naltirilmog'i darkor; korxonalarni qo'llab-quvvatlash ushun soliqlardan turli imtiyozlar berish, jumladan, xorijiy sarmoyador firmalarga firma kapitalini oshirish yoki boshqa firmani ishga tushirish ushun qayta investitsiya qilingan foydaning 20 foizi miqdorida soliqni qaytarishni amalga oshirish. Foyda kamida besh yil davomida qayta investitsiya qilinishi kerak. Agar qayta investitsiya qilingan mablag'lar besh yil ichida qaytarib olinsa, firma soliqni to'lashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahon banki ma'lumotlari. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.TOTL.KD>
2. UNCTAD ma'lumotlari. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
3. Aschauer, D. A. (1989). Is public expenditure productive? Journal of Monetary Economics, 23(2), 177–200. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(89\)90047-0](https://doi.org/10.1016/0304-3932(89)90047-0)
4. Easterly, W., & Rebelo, S. (1993). Fiscal policy and economic growth: An empirical investigation. Journal of Monetary Economics, 32(3), 417–458. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(93\)90025-B](https://doi.org/10.1016/0304-3932(93)90025-B)
5. Otieno, W. O., & Aduda, J. (2020). Foreign direct investment and economic growth: A critical review of literature. International Journal of Finance, 5(1), 45–62.
6. Stiglitz, J. E. (2002). Globalization and its discontents. New York, NY: W. W. Norton & Company.
7. Guriev, S., & Sonin, K. (2009). Dictators and markets: How institutions affect investment. Journal of Comparative Economics, 37(2), 210–231.
8. Shevchenko, A. (2018). Public-private partnership as a tool for financing infrastructure projects in Ukraine. Journal of Public Budgeting, Accounting & Financial Management, 30(4), 529–550.
9. Jahon banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.TOTL.KD>
10. Kondrashova L. American scientists and politicians on the economic strategy of China. Aziya i Afrika segodnya = Asia and Africa today. 2018; 2: 16–22. (In Russ.)
11. Statista – (Статистический портал для рыночных данных, маркетинговых исследований и маркетинговых исследований). <https://www.statista.com/> ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.
12. UNCTAD ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
13. Jahon banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.TOTL.KD>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100